

**To‘xtasinov Toxirjon Mo‘minjonovich**

Andijon davlat tibbiyot instituti,

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

o‘qituvchi tadqiqotchisi

[tohirtoxasinov81@gmail.com](mailto:tohirtoxasinov81@gmail.com)

---

## **II JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTONDA OLIV TA’LIM TIZIMI**

**Annotasiya:** Mazkur maqolada II jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda Oly ta’lim tizimidagi Oly o‘quv yurtlarining tashkil topishi, muammolari va yutuqlari hamda O‘zbekiston ta’lim tizimiga qo‘sishgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Oly ta’lim, Oly o‘quv yurtlari, Oly ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash, ko‘chirib keltirilgan ziyorolar, ta’lim.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о создании, проблемах и достижениях высших учебных заведений Узбекистана в годы после Второй мировой войны, а также их вкладе в систему образования Узбекистана.

**Ключевые слова:** Высшее образование, высшие учебные заведения, подготовка высококвалифицированных специалистов, переведенные интеллигенция, образование.

**Abstrakt.** This article describes the creation, problems and achievements of higher educational institutions in Uzbekistan in the years after the Second World War, as well as their contribution to the education system of Uzbekistan.

**Keywords:** Higher education, higher educational institutions, training of highly qualified specialists, transferred intelligentsia, education.

---

Bugungi kunda O‘zbekiston tarixini xolisona, ilmiy asosda o‘rganishga alovida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oly Majlisga qilgan murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganidek, “milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizni qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng mihami, turli maskuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur.”

O‘zbekiston tarixini o‘rganishda Sovet davri tarixi muhim ahamiyat kasb etadi. 1946-1991 yillarda sovet hukumati O‘zbekistonda ziyoli mutaxassislarni yetishtirishga bel bog‘ladi. Oly va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari malakali mutaxassislar tayyorlash maskaniga aylandi.

Urush yillari O‘zbekistonda Oly o‘quv yurtlari og‘ir sinovlardan o‘tdi. Ko‘pchilik professor-o‘qituvchilar, talabalar frontga safarbar etildi. Samarqand kooperativ instituti bilan Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti, Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari, O‘zbek va O‘rta Osiyo davlat universitetlari birlashtirildi [1]. Ularning bo‘shagan binolariga harbiy muassasalar, gospitallar joylashtirildi.

O‘z professor-o‘qituvchilari bilan ko‘chirib keltirilgan Oliy o‘quv yurtlarining faoliyati respublikada Oliy ta’limning yanada rivojlanishiga ijobiy ta’sir etdi. Moskvalik va Leningradlik olimlar talabalarga yangi kurslar bo‘yicha ma’ruzalar o‘qidilar, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ko‘maklashdilar, yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Ular xalq xo‘jaligi va harbiy ahamiyatga molik mavzularda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Toshkent industriya instituti ilmiy jamoasi Bekobod metallurgiya zavodini qurish, mis va boshqa mahalliy rudalarni eritish usullarini ishlab chiqish, metallar korroziyasiga qarshi kurashishning samarali yo‘llarini topish, yangi zavodlar loyihasini ishlab chiqish va qurish borasida faol qatnashdilar.

O‘zbekiston hukumati Oliy o‘quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy ba’zasini mustahkamlash, o‘qituvchilar bilan ta’minalash masalalarida ko‘maklashdi. Ayniqsa ko‘chib kelgan tajribali pedagoglar, olimlar 1943-1944-yillarda o‘z shaharlariqa qayta boshlagan, urushning dastlabki davrida yopilgan yoki birlashtirilgan institutlar qayta tiklanayotgan, yangidan Chimboy va Urganch pedagogika institatlari, Toshkent teatr san’ati instituti ochilgan, ilmiy-pedagogik kadrlarga muhtojlik ortgan bir paytda pespublika hukumatining Oliy o‘quv yurtlariga ko‘magi sezilarli bo‘ldi. Yirik Oliy o‘quv yurtlarida aspirantura va doktoranturaga qabul kengaytirildi [1]. Respublika miqyosida ishlab turgan rahbar xodimlar Oliy o‘quv yurtlariga ishga yuborildi.

1945-yilda Oliy o‘quiv yurtlari soni 1940-yilga qaraganda 3 taga ko‘payib. 33 tani tashkil qildi, talabalar soni esa 19,1 mingdan 21,2 ming kishiga ortdi. Urursh yillarida xammasi bo‘lib 10 mingdan ko‘proq oliy malakali va 3,7 mingga yaqin o‘rta maxsusu ma’lumotli mutaxassis tayyorlandi [1].

Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov, Voronej, Odessa va boshqa shaharlardan 1941-1943 yillarda ko‘chirib keltirilgan 35 ta Oliy o‘quv yurti va 7 ta akademiya qabul qilib olindi, ularning ba’zilari o‘zaro yoki O‘zbekiston Oliy o‘quv yurtari bilan birlashtirildi [1].

Ushbu qiyinchiliklara qaramasdan O‘zbekistonda Oliy va o‘rta maxsus yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to‘xtab qolmadidi. O‘zbekistonda 29 ta Oliy va 52 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko‘chirib keltirilgan 31 ta Oliy o‘quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yanada ortib bordi. Bu o‘quv yurtlarida urush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlandi [2].

Ikkinchi jahon urushidagi katta yoqotishlar Oliy ma’lumotli xodimlarning son va sifat jihatidan kamayib ketishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida urushdan keyingi yillardayoq Oliy ta’limni rivojlantirish zarur ekanligini taqozo etardi.

Shu yillar mobaynida o‘rta maxsus va Oliy ta’lim tarmoqlari ham rivojlandi. 1940–1941-o‘quv yilida O‘zbekistonda 98 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlari mavjud bo‘lsa, 1960–1961-o‘quv yilida ularning soni 75 taga tushib qoldi, 1988-yillarda esa 248 tani tashkil etdi. Shu yillar mobaynida ularda o‘quvchilar soni ham o‘sdi: O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘quvchilar soni 1940–1941-o‘quv yilida 25,1 ming, 1960–1961-o‘quv yilida 292,0 ming kishini tashkil etdi. Oliy o‘quv yurtlari tarmog‘i ham o‘sdi. 1940–1941 o‘quv yilida O‘zbekistondagi 30 ta Oliy o‘quv yurtida 19,1 ming talaba tahsil ko‘rgan bo‘lsa, 1960–1961-o‘quv yilda 30 ta Oliy o‘quv yurtida 1001,3 ming va 1987–1988-o‘quv yilida 43 ta Oliy o‘quv yurtida 300,3 ming talaba o‘qidi. RSFSR Ukrainianadagi pedinstitatlarda rus tili va adabiyoti fakultetlariga O‘zbekistondan ko‘plab talabalarning qabul qilinishi va o‘qitilishi ham ruslashtirishning bir vositasi sifatida namoyon bo‘ldi [3].

Shu yillar mobaynida respublikada hunar-texnika bilim yurti tarmoqlari ham kengaydi. Umumta’lim, o‘rta maxsus va Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim tarbiya beruvchi o‘qituvchi-pedagog kadrlar soni ham bir qadar o‘sdi. Ammo sovet hukumati o‘zining mustamlaka o‘lkasi hisoblangan O‘zbekistonda mustaqil davlat manfaati va talablariga javob beradigan ta’lim-tarbiya siyosatini olib bormadi. Asosiy e’tibor mustamlakachilarga tez obro‘ keltiradigan qorni shishirilgan raqamlarning o‘sishiga qaratildi, ta’lim-

tarbiya jarayonining asosiy o‘zagini tashkil etuvchi mazmun esa mustamlakachilar manfaatiga xizmat qilardi. Milliy manfaat ikkinchi rejaga surildi. Bu borada andak bo‘lsada o‘z fikr-xulosalariga ega bo‘lgan maorif xodimlari qatag‘on qilindilar. Bu sovetlar hukumatining milliy mustamlaka va qaram o‘lkalarda yurgizgan siyosati mohiyatining tarkibiy qismidir [1].

1950 yilda respublika xalq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashda 26 ta Oliy o‘quv yurtlari, shuningdek, 2 ta universitet faoliyat ko‘rsatdi. Shu bilan birga 92 ta texnikum o‘rta maxsus ta’lim tizimida ish olib bordi. 1950—1953 yillarda respublika Oliy o‘quv yurtlarida 16.600, o‘rta maxsus bilim yurtlarida 19 ming mutaxassis tayyorlandi. Biroq, o‘zbek qishloqdari va shaharlaridagi og‘ir iqtisodiy ahvol maxalliy aholi yoshlarini Oliy maktablarda o‘qishga imkon bermas, ulardan yuqori malakali mutaxassis xodimlar tayyorlash ishiga to‘sinqinlik qilardi. Xususan, 1950—1953 yillarda Oliy o‘quv yurtlarini bitirganlarning atigi 30 foizini, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari bitiruvchilarning esa 33 foizini o‘zbeklar tashkil qildi, xolos.

O‘zbek millatiga mansub yoshlarni Oliy va o‘rta maxsus ta’lim maskanlariga bunchalik kam jalb etilishining yana boshqa o‘ziga xos sabablari ham bor edi, albatta. Bularidan birinchisi,

O‘quv yurtlariga kiruvchi yoshlar o‘rta maktablarda ommaviy-siyosiy tadbirlarga, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga (ayniqsa, qishloq yoshlari) asossiz ravishda ko‘plab jalb qilinishi oqibatida ular Oliy o‘quv yurtlariga kira olishlari uchun talab qilinadigan bilimni olish imkoniyatiga ega bo‘lmasdilar. 60-yillardan boshlab Oliy o‘quv yurtlari qoshida maxsus tayyorlov kurslarining tashkil qilinishi va ularga asosan qishloq yoshlaridan jalb qilinishi fikrimizning to‘g‘riligidan dalolatdir. Yana muhim sabablardan biri, Oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun sinov sifatida xorijiy tillardan imtihon qo‘yilishi va talabalarga rus tilida (80-yillardan boshlab) dars o‘tilishi edi. Natijada respublika Oliy o‘quv yurtlarida qishloq yoshlarining salmog‘i kamayib ketdi. Chunki, qishloq maktablarida na xorijiy tillar, na rus tili (bu soxa o‘qituvchilarining yetishmasligi yoki ularning qishloq maktablarida ishlashni xohlamasliklari natijasida) yetarli darajada, ayrim maktablarda esa umuman o‘qitilmas edi. Bu hol Oliy maktablarda shaharlik yoshlarning ko‘payib borishiga, qishloqlarda esa Oliy ma’lumotli mutaxassislar muammosining yuzaga kelishiga olib keldi.

Ayni paytda, qayd etish lozimki, respublikada yildan yilga Oliy o‘quv yurtlari soni ham ortib bordi. Yangi institutlar — 50-yillarda 3 ta Oliy o‘quv yurti — Andijon tibbiyot instituti, Toshkentda Elektrotexnik aloqa, Fizkultura institutlari, 60-yillarda yana 8 ta yangi Oliy o‘quv yurtlari — Andijon paxtachilik instituti, Farg‘ona politexnika instituti, Samarqand arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari, Andijon tillar pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi. 70-yillarda yana 5 ta Oliy o‘quv yurti — Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil yo‘llar instituti, Pediatriya instituti ochildi. Shuningdek, yangi fakultetlar, viloyatlarda yirik Oliy o‘quv yurtlarining filiallari ochidi. Yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 1959 yilda respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida 31 ta Oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, ularda 88 ming kishi ta’lim olgan bo‘lsa, 1985 yilga kelib Oliy o‘quv yurtlari soni 42 taga, talabalar soni esa 285,5 ming kishini tashkil kildi. Shuningdek, respublikadagi 249 o‘rta maxsus bilim yurtlarida 281,7 ming o‘quvchi bilim oldi [2].

1961—1985-yillardan respublika Oliy o‘quv yurtlari 828 mingga yaqin muhandislar, iqtisodchilar, agronomlar, huquqshunoslar, o‘qituvchilar, madaniyat va san‘at xodimlarini yetishtirib berdi [1]. Shuningdek, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tarmog‘i ham kengaydi. 1960-yilda 75 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1965-yilda ularning soni 249 taga yetdi. 1961—1985-yillarda 1 mln. 135 mingga yaqin o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi [4].

Biroq bular miqdor ko‘rsatkichlardagi ayrim siljishlar edi. Lekin masalaning asosiy jihat — Oliy ta’lim muassasalarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarning sifati va saviyasi masalasida ko‘plab muammolar mavjud edi. «Sosializmning afzalligi»ni «ko‘z-ko‘z» qilish maqsadida asosiy e’tibor Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning son ko‘rsatkichlariga qaratildi. Bu esa mutaxassislarning jahon talablaridan

jiddiy ortda qolishiga, xalq xo‘jaligi uchun keraksiz mutaxassislarning tayyorlanishiga, mablag‘larning bexuda sarflanishiga, mutaxassislardan ishlab chiqarishda samarasiz foydalanishga olib keldi [5].

Shu bilan birga, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; mutaxassislik bo‘yicha asosiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirish o‘rniga barcha Oliy o‘quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini oqitishni yanada yaxshilash to‘g‘risida tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Respublikada Oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash iqtisodiy va madaniy qurilish ishlari, taraqqiyot istiqbollari bilan bog‘langan holda olib borildi.

Maorifni rivojlantirishda mahalliy millatlarga past nazar sovet tuzumi siyosatining pinhona faoliyatiga yashiringan edi. Keyingi yillarda ochilgan arxiv ma’lumotlarida sobiq ittifoqdagi respublikalarda ongli, madaniyatli, hurfikrli kishilarni bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik haqidagi mahfiy ko‘rsatmalar bejiz emas edi.

1965-66 o‘quv yilida Oliy o‘quv yurtlarida talabalar soni 21.190 dan 168.800 taga yetdi. Bu miqdor “mahalliy millat yigit qizlari bilim uchun emas, diplom uchun qiziqsin” degan aqidaga asoslanganligini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lishiga qaramay O‘zbekistonliklarni, xususan o‘zbeklarni ilmga chanqoqligi har qanday sun’iy to‘siqlarni yenga boshladi [6].

O‘zbekistonda fan va texnikaning hamma sohalarida yirik olimlar yetishtirilib, fan nomzodlarini va doktorlarini tayyorlash bo‘yicha sobiq SSSRda oldingi qatorlarga chiqdi.

Ta’lim infratuzilmasining ancha kengayishi mutaxassis kadrlarni tez ko‘payishiga yordam berdi. Respublikada mavjud bo‘lgan bir necha Oliy o‘quv yurtlari O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi uchun hizmat qiladigan mutaxassislarni ham yetishtirib berdi.

Lekin kommunizmga intilishda sinfiylik, partiyaviylik ruhidagi tarbiya maktablardagi milliylikni siqib chiqardi, Oliy ta’lim tizimida mas’uliyatsiz, tashabbussiz, loqayd, “o‘rtamiyona” mutaxassislar tayyorlash mexanizmi yuzaga keldi.

To‘g‘ri, sovet hukumati 70 - 80-yillarda ta’lim dargohlari va bu dargohlarda tahsil olayotgan yoshlar sonining ko‘payishiga yo‘l ocha boshladi. Bu holatni quyidagi raqamlardan ham ko‘rish mumkin: 1987-88-o‘quv yilida 8111 umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar soni 4 million 406,3 ming kishini tashkil etayotgan edi. 1988-yilda o‘rta maxsus ta’lim o‘quv yurtlari soni 248 taga yetib, ulardagi o‘quvchilar soni o‘z navbatida 292.0 ming kishiga etgan edi. 1987-88-o‘quv yilida respublikaning 43 Oliy o‘quv yurtida 300.3 ming talaba ta’lim olayotgan edi [3].

Hunar-texnika bilim yurtlari tarmoqlari ham kengayib, pedagog kadrlarni tayyorlashda birmuncha ijobji ishlar qilingan edi. Biroq, ta’lim-tarbiyadagi asosiy e’tibor mustamlakachilik manfaatlariga bo‘ysundirilib, milliy manfaatlar esa ikkinchi o‘ringa surib qo‘yildi. O‘rta maxsus va Oliy ta’lim uchun yetarli mablag‘ ajratilmadi, “Qoldiq tamoyili” asosida ta’lim tarmoqlari moddiy texnika bazasi nochor bo‘lib qolaverdi. Bu esa o‘z navbatida butun ta’lim-tarbiya jarayonini davr talabi asosida yuqori saviyada tashkil qilish imkonini bermadi. Ta’lim-tarbiyaning barcha jarayonlari “markaz” tomonidan boshqarildi.

Bu yillarda barcha ta’lim-tarbiya maskanlarida o‘qituvchilarning obro‘-e’tibori tushib, ularning mehnatiga to‘lanadigan haq ham jiddiy kamayib bordi. Maktab o‘quvchilari, o‘rta hunar, o‘rta maxsus va Oliy o‘quv yurtlarining talabalari har yili bir necha oy lab o‘qish hisobiga majburiy holda qishloq xo‘jaligi yumushlariga safarbar qilinardilar [7].

Mavjud Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida har yili o'rta hisobda yuz mingdan ortiq mutaxassis tayyorlangan. 1984 yilga kelib, O'zbekistonda 1 million 300 ming nafar Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar bo'lgan holda, 5-6 yil o'qib Oliy ma'lumot olgan kadrlarning anchagina qismi o'zlarini mutaxassis bo'lgan sohalarda ishlamadi. Sirtqi o'quv tizimida chuqur bilimga intilishdan ko'ra diplom olish uchun harakatlar kuchayib ketdi. Masalan, 1982 yil O'zbekiston SSR Xalq Nazorat Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Prokuraturasi o'tkazgan tekshiruvlardan ma'lum bo'lishicha, Qashqadaryo viloyatidagi 251 hunar-texnika bilim yurtini bitirib chiqqan 117 mutaxassis viloyatning Chiroqchi tumanidagi Moskva sovhozi va Ohunboboyev nomli kolxozlariga yuborilgan. Lekin ularning atigi 6 nafari o'z sohasi bo'yicha ishlagan, 73 nafari bo'lsa tayinlangan joyiga kelmagan.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jiddiy kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Mutaxassislar tayyorlashda ekstensiv metod, ya'ni son jihatdan ko'p kadrlar tayyorlash birinchi o'rinda bordi. Kadrlar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natija bermadi. Buning sabablari anchagina:

— o'quv yurtlarining moddiy texnik bazasi talabalarning o'sish darajasidan ancha past darajada bo'ldi, zamonaviy texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmadni;

— Respublika partiya va sovet organlari tomonidan Oliy o'quv yurtlari uchun har bir viloyatdan talabalar qabul qilish rejasи belgilangan bo'lib, bu rejani qanday qilib bo'lsa ham bajarish majburiy edi. Bu o'z navbatida bilim saviyasi nihoyatda past bo'lgan yoshlarning ham Oliy o'quv yurtlaridan o'rin olishiga olib keldi;

— Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida o'quv rejalarini va dasturlari 60—70-yillarda uch marta o'zgardi, har safar o'qitiladigan fanlar yangilari hisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari uchun vaqt tobora kamayib bordi. Talabalarning uzoq muddatli qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi o'quv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'quv yurtlarida keng tarqalgan foizbozlik, bir necha fanlardan o'zlashtirmaganlarni kursdan kursga shartli ravishda o'tkazish kadrlar tayyorlash sifatining pasayishiga olib keldi;

— xalq xo'jaligining mutaxassislarga bo'lgan talabi yaxshi o'rganilmadi, natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarda keragidan ortiqcha mutaxassislar tayyorlandi,

boshqa sohalarda, ayniqsa texnika taraqqiyotining hal qiluvchi tarmoqlarida kadrlar tanqisligiga yo'l qo'yildi;

— o'quv yurtlari faoliyatida tanish-bilishlik, oshna-og'aynigarchilik, poraxo'rlik kabi salbiy holatlarning tarqalishi ham kadrlar tayyorlash sifatini pasaytirdi, son ketidan quvish ustunlik qildi. Bunday vaziyatda yosh mutaxassislarning ma'lum qismi olgan bilimlarini turmush bilan bog'lay olmadilar, g'oyaviy-professional va axloqiy jihatdan yetuklik va qat'iylik ko'rsata olmay, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish yo'liga kirib qoldilar. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng tarqalgan salbiy holatlarning ildizi mutaxassislar tayyorlashdagi nuqsonlarga borib taqaladi, albatta [8].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda Oliy ta'lim tizimi rivojlanishda davom etdi. Abbatta kommunistyik mafkura Oliy ma'lumotli ziyoilirni o'z g'oyalari bilan tayyorlay boshladi. Oliy o'quv yurtlari soni yildan yilga ko'payib turli xil soxalar bo'yicha mutaxassislar yetishib chiqdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Q. Usmonov, M. Sodiqov. O'zbekiston tarixi. "Sharq" T., 2010. 160, 161, 226-b.

2. N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, F.Tolipov, N.Tursunov. O‘zbekiston tarixi. -T.: “Fan va texnologiya”, 2011. 258-b.
3. R.Shamsuddinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Uchinchi kitob. “Sharq”, 2010. 391-b.
4. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. O‘zbekiston tarixi. “Iqtisod-mOliya” T., 2006. 326-b.
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.- “Sharq”, 2000. 575-b.
6. R.Murtazayeva va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. II-Jild. Toshkent. “Vneshinvestprom”. 2019. 385-b.
7. Q.Ergashev. H.Hamidov. O‘zbekiston tarixi. II-kitob. T., “G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2015. 394-b.
8. B.Eshov, A.Odilov. O‘zbekiston tarixi. I-jild. T., “Sharq”. 2010. 227-b.